

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOVA SOHIBA KARIMKUL QIZI

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING
KREATIVLIK QOBILIYATINI INNOVATSION YONDASHUV
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UDK: 37.013(575.112-25)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini
innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish..... 3

Абдураимова Сохиба Каримкул кизи

Развитие креативных способностей будущих учителей начальных
классов на основе инновационного подхода..... 25

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

Developing the creative abilities of future primary school teachers through an
innovative approach..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOVA SOHIBA KARIMKUL QIZI

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING
KREATIVLIK QOBILIYATINI INNOVATSION YONDASHUV
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7317-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.bimm.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Taniberdiyev Akmal Abduganiyevich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shoymardonov Tuymurod Turdialiyeich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" kuni soat_____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2026-yil "_____"dagi_____raqamli reyestr bayonnomasi).

U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda kreativ fikrlash inson kapitalining muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etilmoqda. Global tendensiyalar uni zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos, innovatsion va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti sifatida baholamoqda. Xususan, 2025-yilda ish beruvchilarning 57 foizi kreativ fikrlashni bazaviy kompetensiya, 66 foizi esa uni ahamiyati ortib borayotgan eng muhim kompetensiyalar qatoriga kiritgan. Bu kreativ fikrlashning iqtisodiy raqobatbardoshlik va mehnat bozoridagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bois ta‘lim tizimida kreativ tafakkurni rivojlantirish hamda mustaqil va tahliliy-ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik strategiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo ta‘lim tizimlarida kreativlik qo‘shimcha kompetensiya emas, balki shaxsning ijtimoiy, intellektual va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi hamda ta‘limning asosiy maqsadi sifatida e‘tirof etilmoqda. Innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya va sun‘iy intellektning jadal rivojlanishi ta‘limdan tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga ijodiy yondashish va moslashuvchan yechimlar ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda o‘quv dasturlari, baholash tizimi va o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Bu yondashuv 2025-yilda UNESCOning “Creativity in Education Summit”ida ham tasdiqlanib, o‘qituvchilarni kreativlikni rivojlantirishga mos yondashuvlar asosida tayyorlash zarurligi alohida ta’kidlandi¹.

Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini yagona konseptual asosda takomillashtirish, pedagogik ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash, ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu ustuvor vazifalar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini uzluksiz tashkil etish, o‘quv dasturlarini ilg‘or xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish hamda innovatsion ta‘lim resurslarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda kreativlikni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi talabalarida mazkur sifatni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega, chunki ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatini kreativ yondashuv, yuksak mas‘uliyat va samaradorlik asosida amalga oshirishlari zamonaviy ta‘limning muhim talablaridan biridir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha

¹ Global Institute of Creative Thinking, OECD, & UNESCO IITE. (2025). “7th Creativity in Education Summit 2025 Report: Aligning assessment to foster creative thinking and improve teaching and learning”. 17-19 September 2025, UNESCO Headquarters, Paris. <https://giotc.org/wp-content/uploads/2025/10/CES-Report-2025-Final.pdf>

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqotimiz davomida kreativlik masalalarini bizgacha o'rganilgan qismini vorisiylik tamoyiliga tayangan holda falsafa, psixologiya, pedagogika nazariyasi hamda metodika sohasida tahlil etishni lozim topdik.

Kreativlikning falsafiy-metodologik tahlili yurtimizda N.M.Abdullayeva, Z.D.Davronov, L.A.Qurbonova tomonidan o'rganilgan bo'lsa, psixologik tahlili Z.T.Nishanova, E.Z.Usmonova, F.A.Choriev, N.X.Valiyeva; metodik tahlili A.R.Hamroyev, D.M.Maxmudova, K.N.Yusupova, J.X.Xayitov, F.M.Kasimov, A.Djurakulova, A.J.Xurramov, U.J.Sodikov; innovatsion ta'lim muhiti J.Mannopov, D.U.Qo'chqarov, M.A.Jumayeva, X.N.Qodirova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida kreativlik psixologiya obyekti sifatida L.S.Vygotskiy, V.D.Shadrikov, V.B.Filimonova; pedagogik jihatlar L.N.Shulpina, A.Dunaev, A.G.Alaynikov, S.V.Rojkova, L.M.Fridman, E.G.Burmistrova, N.I.Merlina, M.N.Kuzmin, N.V.Mixaylova va boshqalarning ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, V.S.Bezrukova, M.M.Potashnik, V.S.Lazarev, A.V.Xutorskiy innovatsion ta'lim muammolarini tadqiq etishgan.

Xorijiy mamlakatlarda kreativlik konsepsiyasi faylasuflar: I.Ya.Lerner, G.S.Al'tshuller, A.Osborn, Ye.N.Shulga; psixolog-olimlar A.Maslou, M.A.Vollax, G.Alder; pedagog olimlar J.R.Averill, Patti Drapeau, Entoni Uilson, E.A.Silver, J.Adamar, G.Ervynck, E.Mann, Mary Briggs, L.Billings kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. V.A.Dalinger, O.Melnuk, O.V.Byukovska va boshqalar innovatsiya, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv, innovatsion ta'lim masalalarini o'rganishgan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda texnologiya, ona tili, informatika ta'limida talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, kreativ faoliyatini loyihalashtirish, ularning ta'lim jarayonini loyihalashtirishga oid ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik tafakkurini rivojlantirish, ularda ta'lim jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining ayrim jihatlarini ochib berilgan. Biroq bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish konstruktiv-innovatsion mexanizm sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz

ta'lim tizimida fanlarni o'qitishning g'oya va tushunchalarini shakllantirish asosida takomillashtirish" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini takomillashtirish;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Guliston davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Nukus innovatsion institutining jami 371 nafar respondent-talabalar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni, metod, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy-metodik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil, modellashtirish usullaridan foydalanildi. Jumladan, N.F.Vishnyakova tomonidan ishlab chiqilgan "Kreativlikni aniqlash usuli" metodikasi, "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini aniqlash" so'rovnomalardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahliliy, divergent va refleksiv komponentlarni o'zida mujassam etgan ko'p darajali (didaktik, metodologik va umumpedagogik) konstruktiv tizim orqali fikrlash moslashuvchanligi, originalligi hamda kasbiy refleksiyani ta'minlovchi yaxlit mexanizm sifatida aniqlashtirilgan;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli kreativ ta'limning indikativ-analitik ko'rsatkichlari hamda innovatsion fikrlash va tashabbuskorlikni faollashtiruvchi indikatorlar integratsiyasi orqali to'rtta asosiy kompetensiya majmuini "4K+2I" mexanizmi ko'rinishida ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni nazorat-dagnostika vositalarini funksional uyg'unlashtirish hamda individual rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar negizida progressiv baholash texnologiyasini kriterial

mezonlar bilan boyitish orqali takomillashtirilgan;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligi differensiallash, gemifikatsiya va muammoli ta'lim texnologiyalarini didaktik-jarayonli, emotsional-kognitiv hamda refleksiv-faollashtiruvchi komponentlar bilan muvofiqlashtirish orqali "Kreo-differensial" metodik tizim sifatida loyihalashtirish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan tuzilmaviy-funksional model, diagnostika mezonlari va ko'rsatkichlari majmui ishlab chiqilgan;

talabalarning kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning didaktik ta'minoti sifatida "Kasbiy pedagogik kompetentlik" nomli darslik, "Matematika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma va "Matematika o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli uslubiy qo'llanmalar nashr etilgan;

talabalarning kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishdagi xorijiy tendensiyalar asosida "Boshlang'ich sinf matematika darslarida xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi", "International trends in teaching mathematics in primary education", "Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlik va xalqaro tajriba" nomli monografiyalar nashr etilgan;

talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning Kreo-differensial usullari" nomli maxsus trening kursi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga oid milliy va xalqaro tajribalarga tayanilganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish modeli va integrativ texnologiyalarini takomillashtirishning mazmuni va mohiyati ochib berilganligi, ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini tashkil etish, mazmunini boyitish, o'quv-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlash prinsiplari va vositalari mazmunini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan malaka oshirish mintaqaviy markazlarida boshlang'ich sinf

o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiya sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahliliy, divergent va refleksiv komponentlarni o'zida mujassam etgan ko'p darajali (didaktik, metodologik va umumpedagogik) konstruktiv tizim orqali fikrlash moslashuvchanligi, originalligi hamda kasbiy refleksiyani ta'minlovchi yaxlit mexanizm sifatida aniqlashtirishga doir tavsiyalar "Kasbiy pedagogik kompetentlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2026-yil 17-martdagi 02/01-01-180-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish diagnostikasiga oid ta'lim mazmunini takomillashtirish, kreativ diagnostika, divergent generatsiya va refleksiv interpretatsiya asosidagi yangi didaktik modul shakllantirilib, talabalarda kreativlikni aniqlash va rivojlantirish jarayoni ilmiy asoslangan vositalar bilan boyitish imkoniyati yaratilgan;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli kreativ ta'limning indikativ-analitik ko'rsatkichlari hamda innovatsion fikrlash va tashabbuskorlikni faollashtiruvchi indikatorlar integratsiyasi orqali to'rtta asosiy kompetensiya majmuini "4K+2I" mexanizmi ko'rinishida ishlab chiqish orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Matematika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2026-yil 17-martdagi 02/01-01-180-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash, pedagogik vaziyatlarni innovatsion yondashuv asosida tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish hamda ta'lim jarayonini kreativ loyihalash jarayonini ilmiy asoslangan vositalar bilan boyitish imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni nazorat-diagnostika vositalarini funksional uyg'unlashtirish hamda individual rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar negizida progressiv baholash texnologiyasini kriterial mezonlar bilan boyitish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2026-yil 17-martdagi 02/01-01-180-son ma'lumotnomasi). Natijada progressiv baholash texnologiyasi o'quv jarayoniga joriy etilib, talabalarning kreativ rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich aniqlash va obyektiv monitoring qilish imkoniyati ta'minlangan;

kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish

samaradorligi differensiallash, gemifikatsiya va muammoli ta'lim texnologiyalarini didaktik-jarayonli, emotsional-kognitiv hamda reflektiv-faollashtiruvchi komponentlar bilan muvofiqlashtirish orqali "Kreo-differensial" metodik tizim sifatida loyihalashtirish asosida aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar "Kasbiy pedagogik kompetentlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2026-yil 17-martdagi 02/01-01-180-son ma'lumotnomasi). Natijada metodik tizimning variativligi kengaytirilib, talabalarda reflektiv tahlil, kreativ fikrlash, pedagogik faoliyatni loyihalashtirish hamda kreativlik qobiliyatlarini namoyon etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 3 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dozarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" nomli birinchi bobida tadqiqotning kontseptual g'oyalari: kreativlik va kreativlik qobiliyat termini falsafiy, psixologik, pedagogik, metodik jihatdan yoritilgan, kreativlik va ijodiylik terminlari tavsiflangan, mamlakatimiz ta'lim tizimida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv, kreativlik xususiyatlari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning mohiyati, mazmuni va pedagogik jihatlari yoritib berilgan.

Tadqiqotning kontseptual g'oyalari bo'lmish "kreativ", "kreativlik", "ijod", "ijodiy", "ijodiylik", "ijodiy tafakkur", "qobiliyat", "innovatsiya" va "innovatsion yondashuv" kabi terminlarga lingvistik, psixologik, pedagogik lug'atlar hamda

ensiklopediyalarda berilgan ta'rif va izohlar solishtirildi. Shuningdek, kreativlik tadqiqot obyekti etib belgilangan falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik qarashlar va nazariyalar tahlil etildi.

O'zbek tilidagi lug'atlar va ensiklopedik manbalarda dastlab asosan "ijod" va "qobiliyat" tushunchalariga izoh berilgan bo'lib, "kreativlik" atamasi umuman qo'llanmagan. Keyinchalik pedagogik lug'atlarda kreativlik tushunchasi "ijodiylik" bilan tenglashtirilgan va "yangi, betakror narsa yarata olish layoqati" sifatida talqin etilgan. So'nggi yillarda yaratilgan zamonaviy lug'atlarda esa kreativlik alohida ilmiy-pedagogik kategoriya sifatida qaralib, "yangi g'oyalar ishlab chiqarishga tayyorlik, iqtidorning tarkibiy qismi va shaxsning ijodiy qobiliyati" deya izohlangan.

Falsafiy qarashlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlari ijodiy tafakkurni asosan ma'naviy-axloqiy barkamollik, shaxsiy kamolot va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'laganlar. Ularning yondashuvlarida ijodiylik shaxsning ma'naviy-ruhiy qiyofasini yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qilingan. G'arb faylasuflari va psixologlari esa ijodni ko'proq intellektual jarayon, bilish shakli va ratsional faoliyat sifatida tahlil qilganlar. Ularning qarashlarida ijodiy tafakkur metod va bosqichlarga ajratilib, uni o'rganish va rivojlantirish mumkin bo'lgan mexanizm sifatida talqin qilingan.

Psixologik qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik shaxsning intellektual salohiyati, emotsional tajribasi, tasavvuri, xotirasi, diqqat va intuitiv qobiliyatlari hamda tashqi muhit ta'siri bilan shakllanuvchi murakkab psixologik hodisadir. Kreativlikni nafaqat individual sifat, balki o'quv-tarbiyaviy jarayonda rivojlantirilishi mumkin bo'lgan psixologik resurs sifatida qarash lozim. U shaxsning noodatiy yechimlar topish, innovatsion g'oyalar yaratish va turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu bois kreativlik psixologiyada shaxs rivojlanishi va ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda kreativlik shaxsning faqat individual qobiliyati emas, balki ta'lim jarayonida shakllanadigan, ma'naviy, intellektual va emotsional jihatlarning uyg'unlashuvi natijasida rivojlanadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisadir. U o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, innovatsion yondashuvi va ijodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zamonaviy ta'limda muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Shu bois, kreativlikni pedagogik jarayonda rivojlantirish nafaqat shaxsiy salohiyatni ochib berishga, balki ta'lim samaradorligini oshirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlilida "kreativlik" tushunchasi "ijod" tushunchasi bilan bog'liq ekanligi, ikkala tushuncha bir-biriga mos kelishi va ko'pincha sinonim sifatida ishlatilishi ma'lum bo'ldi. Buning sababi "kreativlik" atamasining kelib chiqishidadir (lotincha creatio – ijod, inglizcha creativity – ijodiy salohiyat, ijodiy qobiliyatlar). Ko'rib turganimizdek, atamaning talqinida ijod elementi mavjud. Demak, "kreativlik" tushunchasi talqin qilinishidan oldin, uning tarkibiy qismlari "ijod" tushunchasining tarkibiy qismlari sifatida o'rganilgan.

Zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeli – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya – o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgi ta'lim muhiti murakkab, o'zgaruvchan va ko'p holatlarda oldindan rejalashtirib bo'lmaydigan vaziyatlar bilan to'lib-toshgan. Shunday sharoitda faqat 4K komponentlari yetarli bo'lmay, unga "improvizatsiya" va "intuitsiya" kabi chuqurroq psixologik va reflektiv qobiliyatlarni ham qo'shish zaruratga aylangan.

Pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi faqat metodik qoidalarga tayanib emas, balki real vaziyatga mos ravishda sezgir, tezkor, ijodiy va moslashuvchan bo'lishi kerak. Aynan shunday sharoitda "4K+2I" mexanizmi taklif etiladi – u "4 ta asosiy kompetensiya (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya)"ni "improvizatsiya" va "intuitsiya" orqali to'ldirib, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

"4K+2I" konstruktiv-innovatsion mexanizmi komponentlari quyidagicha:

Kollaboratsiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda talabalarning hamkorlikda ishlashlari, birovning g'oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga asoslangan, o'zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishni shakllantirishdir.

Kommunikatsiya – muloqot qilish qobiliyati, talabalar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganishdir.


Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun'iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kritik fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o'zlashtirmaslik, har doim o'z fikriga ega bo'lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Improvizatsiya – bu o'qituvchining o'quv vaziyatida yuzaga kelgan kutilmagan o'zgarishlarga mos ijodiy yondasha olishidir. Ta'limda improvizatsiya pedagogga nafaqat dars mazmunini yetkazish, balki u orqali o'quvchini ilhomlantirish, darsga jon baxsh etish imkonini beradi.

Intuitsiya – bu murakkab, ko'p omilli vaziyatlarda o'qituvchining tez, ammo ishonchli qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ko'pincha bu qarorlar chuqur tahlilga emas, balki ilgari to'plangan tajriba, sezgi va emotsional anglashga tayanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida 4K+2I mexanizmi konstruktivistik va innovatsion yondashuvlar uyg'unligida o'qituvchining kasbiy sezgirliги, ijodiy moslashuvchanligi hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmi bo'la oladi (1-rasm).



1-rasm. Kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning 4K+2I konstruktiv-innovatsion mexanizmi

Tadqiqot ishimizda “Kreativlik – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda konstruktiv va original yechimlar ishlab chiqish, muammolarga yangicha yondashish hamda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ kasbiy-shaxsiy sifati”, “Kreativlik qobiliyati – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik muammolarni kreativ tahlil qilish, muqobil g‘oyalarni generatsiya qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va o‘z faoliyatini refleksiv baholashga imkon beruvchi individual-kasbiy salohiyati” sifatida talqin qilindi.

Nazariy manbalar tahlili kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida kreativ tahlilning alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. *Kreativ tahlil pedagogik muammolarni turli nuqtai nazardan baholash, mavjud yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish hamda muqobil yechimlarni izlashga yo‘naltirilgan intellektual faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.* Tadqiqotda kreativ tahlil kreativlik qobiliyatining tarkibiy komponentlaridan biri sifatida qaraldi. Mazkur yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlash moslashuvchanligini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik va kreativlik qobiliyatining falsafiy, psixologik hamda pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinishi mazkur fenomenning ko‘p qirrali va integrativ tabiatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Olib borilgan nazariy tahlillar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik

qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va asoslash uchun zarur metodologik zamin yaratdi.

Bizningcha, innovatsion ta'lim jarayoni faqat yangilikni joriy qilish emas, balki mavjud bilim va ko'nikmalarni kreativ tarzda qayta ishlab, ularni yangi sharoitlarda samarali qo'llashga imkon beradigan faoliyat tizimidir. Shu bois innovatsiya – ta'limda yangilik kiritishning tashabbusi, innovatsion usul – uni amalga oshirishning vositasi, innovatsion yondashuv – ilmiy-metodologik asos, innovatsion ta'lim esa – mazkur jarayonning natijaviy shakli sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, innovatsion yondashuv va innovatsion ta'limni uyg'un qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asosini tashkil qiladi va ta'lim tizimida barqaror sifat o'zgarishlarini ta'minlashning muhim garovi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning metodik ta'minoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning mazmun va mohiyati, mezon va darajalari, boshlang'ich ta'limda matematik kreativlik va uning rivojlanish bosqichlari, shakl, metod va texnologiyalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish modelini takomillashtirish masalalari yoritilgan.


Tajribaviy-eksperimental ishlarda qo'llangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik modeli konseptual model hisoblanadi. Bu model mualliflik konsepsiyamiz doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, uning amaliy samaradorligi va natijadorligini tasdiqlash maqsadida eksperimental aprobatiya o'tkazilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning konseptual pedagogik modelini ishlab chiqish va amalga oshirish asosida biz tomonidan quyidagi ketma-ketlikda (2022-2025-yillar oralig'ida) amalga oshirildi:

1) nazariy asoslarni chuqur o'rganish bosqichida; 2) mavjud tajribalarni o'rganish bosqichida; 3) konseptual yondashuvni ishlab chiqish bosqichida; 4) amaliy modelni yaratish va sinovdan o'tkazish bosqichida.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ma'ruza, seminar, amaliy dars shakllari, ochiq ta'lim muhiti (Open-Air education), mustaqil ta'lim, ta'limiy musobaqalar, savol-javoblar, trening-mashg'ulotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida olingan nazariy natijalardan amaliyotga joriy etish metodik tizimining modeli ishlab chiqildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish modeli 4 blokdan iborat: maqsadli, tashkiliy, mazmunli-protsessual, nazorat-dagnostik blok. Modelning har bir bloki o'z oldiga bir qator maqsad va vazifalarni belgilab olgan (2-rasm).



2-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish modeli

Modelda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ta'limga konstruktivistik va innovatsion yondashuv (integrativ, tabaqalashgan, faoliyatli va texnologik)ni joriy etish strukturasi ko'rsatilgan. Pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta'minlashda innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining ijtimoiy buyurtma va maqsadi **maqsadli blokda** izohlangan.

Tashkiliy blokda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari va yondashuvlari aks ettirilgan.

Mazmuniy-protsessual blok innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar, vositalar, shakllar va komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu modelning **nazorat-dagnostik bloki** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini innovatsion usullar asosida rivojlantirish jarayonini tizimli ravishda kuzatish, baholash va takomillashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, modelning asosiy vazifasi butun ta'lim jarayonini mazmunan va metodik jihatdan muvofiqlashtirish, shu bilan birga har bir tarkibiy elementni alohida nazorat qilish orqali samaradorlikni oshirishdan iborat.

Takomillashtirilgan modelning ilmiy yangiligi uning tarkibiga kreativ o'qitish (Creativity Teaching) va kreativlik uchun o'qitish (Teaching for Creativity) komponentlarining integratsiyalashgan holda kiritilganligi hamda 4K+2I (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya, improvizatsiya va intuitsiya) konstruktiv-innovatsion mexanizmi asosida faoliyat yuritishida namoyon bo'ladi.

Modelda innovatsion yondashuvning integrativ, faoliyatli, tabaqalashtirilgan va texnologik imkoniyatlari yagona pedagogik tizimga birlashtirilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirildi. Mazkur jihatlar modelning mavjud pedagogik modellardan farqli ravishda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga transfer qilish imkoniyatini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot doirasida kreativlik qobiliyatini baholash diagnostik, formativ, summativ va yakuniy baholash bosqichlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan progressiv baholash texnologiyasi asosida tashkil etildi. Mazkur texnologiya talabalarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, kreativlik qobiliyatining tarkibiy komponentlari bo'yicha o'zgarishlarni aniqlash hamda natijalarni kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Kreo-differensial" metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizim bosqichli differensiallash, gamifikatsiya va muammoli ta'lim texnologiyalarining didaktik-jarayonli, emotsional-kognitiv hamda reflektiv-faollashtiruvchi imkoniyatlarini integratsiyalash asosida qurildi. Tizimning amaliy ifodasi sifatida uch bosqichli trening kurslari ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayoniga joriy etildi. Natijada talabalarning kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, kommunikativ faollik, hamkorlikda ishlash, improvizatsiya va intuitiv qaror qabul

qilish ko'nikmalarini izchil rivojlantirish imkonini beruvchi yaxlit metodik muhit yaratildi.

Tadqiqot davomida 3 bosqichli "Kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning Kreo-differensial usullari" nomli trening kursi ishlab chiqildi:

1. Kirish-tayyorgarlik bosqichi. Dastlab talabalarning kreativlik qobiliyatini diagnostika qilish, kreativlik komponentlarini shakllantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning diqqat va e'tiborini darsga jalb etish maqsadida "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish dasturi" nomli trening kursi tashkil etildi.

Trening kursining davomiyligi 2 soat 15 daqiqani tashkil etib, unda "Ko'ptokni uzat", "Ko'prik qurish" metodlari orqali jamoaviy ishlash ko'nikmalari, "Haykalni muzlat", "Nima bu?" metodlari orqali diqqat va ziyraklik ko'nikmalari rivojlantiriladi. "Ijodiy ko'zgu" metodi talabalarga o'z potentsiallarini his etish, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'ularini shakllantirishga, "Hozirgi men" va "Kelajakdagi men"lari o'rtasidagi farq nimada ekanligi, aniq kelajak uchun qo'yilgan maqsadlari nima ekanligi va bu maqsadlarga erishish uchun nimalar qilish kerakligi haqida yana bir bora esga olishga yordam beradi.

2. Amaliy-uslubiy bosqich. Bu bosqichda "Kreativ matematika" trening kursi tashkil etildi. Treningda "Matematika va uni o'qitish metodikasi" o'quv dasturining ikkinchi modulida mavjud bo'lgan bob mavzulari kreativ tarzda yoritilgan, sharhlangan. Trening kursining asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematika o'qitish jarayonida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, matematika o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish, boshlang'ich sinf matematika darslarini yanada mazmunli va qiziqarli tarzda tashkil etishga bo'lgan motivatsiyalarini shakllantirishdan iborat. "Kreativ matematika" trening kursi 10 soatga mo'ljallangan bo'lib, unda jami 10 ta mavzu (har biri 1 soatdan) yoritilgan. Xususan, "Matematik tanishuv" metodi, "Mening matematik yo'lim" metodi, "4 harakat" metodi, "Vaqtini to'g'ri taqsimlash" metodi, "Arifmetik amallarni tasvirlash" metodi, "Algebrak izlanish" metodi, "Geometrik konstruktor" metodi, "Kasrlar bilan ishlash" metodi, "Masala yechish" metodi kabilardan foydalanildi. Trening kursining tashkil etilishi texnologik xaritada yoritib berilgan.

3. Moslashtirilgan yuqori (differensial yondashuv) bosqichi. Bu bosqichda "Gospital ta'limda kreativlik" trening kursi ishlab chiqildi. Bu trening kursi 3 soatga mo'ljallangan bo'lib, talabalarni gospital pedagogika asoslari bilan tanishtirish, "Mehrli maktab" loyihasi haqida ma'lumotlar berish, ta'limning inkluziv shakllari bilan duch kelishga tayyorlash, gospital sharoitda dars mashg'ulotlarini tashkil etishning psixologik, pedagogik va metodik jihatlari bilan tanishtirish, interfaol dars ishlanmalari yaratish ko'nikmalarini hosil qilishni maqsad qilingan. Trening davomida: interfaol ma'ruza, gamifikatsiya, taktik o'qitish, ro'l o'ynash, muammoli ta'lim (problem-based learning)dan foydalanildi. Trening kursining tashkil etilishi texnologik xaritada yoritib berilgan.

Shunday qilib, 3 bosqichli bu trening kurslari talaba yoshlarning kreativlik qobiliyatini oshirishga, matematik kreativlik ko'nikmalarining mustahkamlanishiga

va inkluziv ta'lim, gospital pedagogika haqidagi bilimlarini oshirishga va hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash, improvizatsiya va intuitsiya kabi qobiliyatlarining rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish va uning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsadi va vazifalari belgilab olinib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi amalga oshirildi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot yo'li va mazmunini to'g'ri va aniq belgilab olish uchun, Guliston davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Nukus innovatsion institutidan “Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 1-3-bosqich talabalaridan 371 nafari respondent sifatida ishtirok etdi.

Qayd qilingan vazifalarni amalga oshirish maqsadida pedagogik tajriba tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari mazmun jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan uch bosqichda olib borildi: **1-bosqich (2022–2023-yillar)** – mavjud holatni aniqlashga qaratilgan *asoslovchi va tashxislash bosqichi* sifatida tashkil etildi. **2-bosqich (2023–2024-yillar)** – innovatsion yondashuv asosida izlanishlar olib borilgan *innovatsion izlanish va eksperimental sinov bosqichi* sifatida tashkil etildi. **3-bosqich (2024–2025-yillar)** – ilgari surilgan g'oyalarni amaliyotda sinovdan o'tkazish maqsadida *amaliy sinov va yakuniy tahlil bosqichi* amalga oshirildi.

Dastlab, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma 12 ta savoldan iborat bo'lib, Google Forms platformasi asosida ishlab chiqilib, respondentlarga tarqatildi.

“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi talabalarini kuzatish va so'rovnoma natijalaridan shunday xulosa qilindiki, ko'pgina talabalar kreativlik qobiliyatini aynan matematika o'qitish jarayonida emas, ko'proq auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ishlatishib, “Matematika va uni o'qitish metodikasi” fani doirasida bu qobiliyatdan foydalanishning samarasi haqida yetarlicha tushunchaga ega emas ekanlar.

Talabalarning kreativlik qobiliyatini baholashda ikki darajali yondashuv qo'llanildi: birinchi darajada kreativlik shaxsiy-kasbiy sifat sifatida N.F.Vishnyakova metodikasi orqali aniqlandi, ikkinchi darajada esa mazkur qobiliyatning real o'quv faoliyatiga ta'siri “Matematika va uni o'qitish metodikasi” fanidan o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida bilvosita baholandi.

Mazkur ikki darajali yondashuv kreativlik qobiliyatining shaxsiy-psixologik jihatlar bilan bir qatorda uning o'quv faoliyatida namoyon bo'lish darajasini kompleks baholash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali olingan xulosalarning ishonchliligi, natijalarning haqqoniyligi va o'qitish samaradorligining oshganligini aniqlash maqsadida statistik tahlil o'tkazildi. Mazkur tahlil matematik

